

O‘ZBEK, QOZOQ, TURKMAN TILLARIDA LINGVOKULTUROLOGIK KONSEPTLARNING SINSET MODELI VA ULARNING SEMANTIK IFODASI

Ziyotova Surayyo Erkin qizi,

Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti, (PhD),

Usenbayeva Gulnura Kanat qizi,

Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi,

Meretova Lachin Serdar gizi,

Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi,

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda o‘zbek tilidagi lingvokulturologik konseptlar sinset modeli orqali o‘rganildi. Tadqiqot lingvokulturologik konseptlarni sinset asosida tahlil qilish til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqani yanada ochib berishini ko‘rsatadi va semantik tarmoqlar yaratishda amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologik konseptlar, sinset modeli, semantik tarmoq, leksik birliklar, sinonimiya, antonimiya, giperonimiya, giponimiya.

Abstract. This study examines the lingvocultural concepts of the Uzbek language through the synset model. The study demonstrates that analyzing lingvocultural concepts based on the synset model allows for a deeper understanding of the interconnection between language and culture and serves as a practical basis for creating semantic networks.

Keywords: lingvocultural concepts, synset model, semantic network, lexical units, synonymy, antonymy, hypernymy, hyponymy.

Аннотация. В данном исследовании лингвокультурные концепты узбекского языка изучались с помощью модели синсета. Исследование демонстрирует, что анализ лингвокультурных концептов на основе синсета позволяет глубже раскрыть взаимосвязь языка и культуры и служит практической основой для создания семантических сетей.

Ключевые слова: лингвокультурные концепты, модель синсета, семантическая сеть, лексические единицы, синонимия, антонимия, гиперонимия, гипонимия.

Kirish. Hozirgi kunda turli amaliy maqsadlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan keng qamrovli bilim bazalariga qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, inson omilisiz matndan har qanday ma‘lumotni chiqarib oluvchi neyro-to‘rlarga asoslangan tizimlarga ehtiyoj katta. [1: 5] Zamonaviy tilshunoslikda leksik birliklarni tizimli o‘rganish, ayniqsa ularni semantik tarmoqlar asosida modellashtirish dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan so‘zlarni tezaurusning bir bo‘lagi hisoblangan sinsetlar orqali semantik tarmoq ichida tashkil etadigan tizimli model muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tizimda so‘zlar alohida emas, balki ma‘noga asoslangan sinsetlar shaklida tashkil etilib, ular o‘zaro turli semantik munosabatlar orqali bog‘lanadi. Z. Xolmanovanning darsligida tezaurus lug‘atning sinset ko‘rinishining bir qancha turlarini ko‘rishimiz mumkin. [2: 119] O‘zbek tilshunosligida esa bunday tizimli yondashuv hali yetarli darajada rivojlanmagan, ayniqsa lingvokulturologik birliklar doirasida sinsetlarni modellashtirish masalasi kam o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbek tilidagi lingvokulturologik konseptlar sinset modeli orqali o‘rganilganda, ularning semantik tarmoqdagi o‘rnini aniqlash mumkin

bo‘ladi. Sinset tushunchasi zamonaviy lingvistik model asosida izohlanadi, bunda so‘zlar faqat lug‘aviy ma‘nosi bilan emas, balki ularning semantik bog‘lanishlari bilan ham tushuntiriladi. Lingvokulturologik birliklar konsept sifatida ajratilib, har bir konsept uchun sinset va unga bog‘langan semantik munosabatlar aniqlanadi. Ma‘lumki, *sinset* bir xil yoki yaqin ma‘noni ifodalovchi leksemalar to‘plami bo‘lib, u muayyan konsept (tushuncha)ni ifodalaydi. Konsept lingvomadaniyatda eng faol qo‘llanuvchi birlik sanaladi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi. [3: 23]

Adabiyotlar sharhi. Konseptning hosil bo‘lishi har bir insonda individual bo‘lishiga qaramay, atrof-muhit unga ta’sir ko‘rsatadi hamda ma‘lum hududdagi jamiyat ongida shakllangan konseptlar o‘xshash va umumiy xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bu jihati bilan konsept milliylikni o‘zida aks ettiradi. Eng ko‘p o‘rganilgan konseptlar sirasiga ‘oila’ konseptini qo‘shish mumkin. [4:23] Lekin hozirgacha o‘zbek tilida aynan lingvokulturologik nuqtayi nazardan to‘liq tizimlashtirilgan sinset modeli ishlab chiqarilmagan. Sinsetlarni faqat so‘zlarni guruhlash vositasi sifatida emas, balki ularni turli semantik munosabatlar orqali bir-biri bilan bog‘laydigan sistematik model deb qarash mumkin. Bunda sinset faqat sinonimlar yig‘indisi emas, balki kengroq semantik tizimning markaziy birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Sinsetlar o‘zaro sinonimiya, antonimiya, giperonimiya (kengroq tushuncha), giponimiya (quyi tushuncha) kabi munosabatlar orqali bog‘lanadi. Shu sababli til birliklarini tarmoq shaklida o‘rganish imkoniyati yuzaga keladi. Lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan esa ayrim so‘zlar oddiy lug‘aviy ma‘nodan tashqari milliy-madaniy mazmunni ham o‘zida mujassam etadi.

Natijalar. O‘zbek, qozoq va turkman xalqlari Markaziy Osiyo umumturkiy madaniyatiga mansub bo‘lgani sababli, ularning maishiy leksikasidagi lingvokulturologik konseptlarni sinset modeli orqali bog‘lash juda samarali usuldir. Bu tillardagi maishiy konseptlar (uy-joy, taom, mehmondorchilik, kiyim-kechak) nafaqat lug‘aviy ma‘noni, balki ko‘chmanchi va o‘troq turmush tarzining sintezini ifodalaydi. Xususan, “Mehmondo‘stlik” sinset modeli uchala xalq uchun ham ushbu konsept muhim yadro vazifasini bajara oladi va sinset quyidagicha bog‘lanadi:

- 1) o‘zbekcha: *Mehmondo‘stlik: izzat-ikrom, mehmondorchilik, ziyofat;*
- 2) qozoqcha: *Qonaqjaylylyq: qonaqasy, sai-qurmet;*
- 3) turkmancha: *Myhmansöyerlik: sylag-hormat, saçak.*

Sinset ichidagi “*Saçak/Dasturxon*” birligi uchala tilda ham shunchaki buyum emas, balki “rizq”, “baraka” va “oilaviy muqaddaslik” semalarini tashuvchi madaniy koddir. “Baraka” semasi “ijobiy holat” kabi umumiy tushunchaga bog‘lanadi hamda “qut”, “to‘kinlik” kabi birliklar bilan semantik aloqada bo‘ladi. Bu esa o‘zbek tilida diniy va madaniy tasavvurlar til birliklari orqali qanday ifodalanishini ko‘rsatadi. O‘zbek tilidagi lingvokulturologik konseptlar oddiy sinonimik qatorlar emas, balki murakkab semantik tarmoqlarni tashkil etadi. Ular sinsetlar orqali markazlashadi va boshqa birliklar bilan turli

munosabatlar orqali bog‘lanadi. Bunday yondashuv o‘zbek tilida WordNet tipidagi semantik tarmoq yaratish imkoniyatini beradi. WordNet – 200 dan ortiq tillarda qo‘llaniladigan so‘zlar o‘rtasidagi semantik munosabatlarning leksik ma‘lumotlar bazasidir. [5: 149]. “Mehmondo‘stlik” sinset modeli uchala xalq frazeologik birliklarida yorqin namoyon bo‘ladi:

- 1) o‘zbekcha: “*Mehmon otangdan ulug‘*”;
- 2) qozoqcha: “*Qonaq keldi — qut keldi*” (Mehmon kelishi — qut-baraka kelishi);
- 3) turkmancha: “*Myhman — Ataňdan uly*” (Mehmon — otangdan ulug‘).

Keltirilgan frazeologizmlar o‘zbek, qozoq va turkman xalqlari tafakkurida “Mehmon” konseptining “muqaddaslik” va “hurmat” semalari bilan bog‘langanligini ko‘rsatadi. O‘zbek va turkman tillaridagi o‘xshashlik (Otadan ulug‘) iyerarxik qadriyatlar tizimida mehmonning o‘rni oila boshlig‘idan ham yuqori ekanligini, ya‘ni shaxsiy manfaatdan ijtimoiy burch ustunligini anglatadi.

Maishiy leksika doirasida uchala qardosh xalqlar “uy/turar-joy” maishiy leksikasidagi sinsetlar turli semantik farqlarni ko‘rsatadi:

- 1) o‘zbekcha: *hovli, darvoza, mehmonxona, ostona*;
- 2) qozoqcha: *kiyiz üy* (kigiz uy), *shaňyraq* (uyning tepasi);
- 3) turkmancha: *ak öý* (oq uy), *gara öý* (qora uy).

Qozoqcha “*shaňyraq*” va o‘zbekcha “*ostonaga bosh qo‘yish*” birliklari bir sinsetga (uyning muqaddas qismi) yaqinlashadi. Ularning semantikasida “sulola davomiyligi” tushunchasi yotadi.

Maishiy leksikaning eng boy qismi bu — taomnomadagi konseptual sinsetlar. Bu yerda sinsetlar “et va xamir” tushunchasi atrofida birlashadi:

Sinset yadrosi: Go‘shli taom

- 1) o‘zbekcha: *osh* (palov) — ijtimoiy birlashish, to‘y yo‘za ramzi;
- 2) qozoqcha: *besbarmaq* (Et) — hurmat, an‘ana ramzi;
- 3) turkman: *dograma* — marosim va jamoaviylik ramzi.

Xulosa. Lingvokulturologik konseptlarni sinset modeli asosida o‘rganish til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqurroq ochib beradi. Mazkur yondashuv nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, u kompyuter lingvistikasi, xususan semantik tarmoqlar, sun‘iy intellekt, mashina tarjimasini va axborot qidiruv tizimlarini rivojlantirishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, o‘zbek, qozoq va turkman maishiy leksikasini sinset modeliga solish orqali “**Turkiy turmush tarzi**” degan yagona kognitiv xaritaning chizish mumkin. Bu model tillar orasidagi farqlarni emas, balki madaniy qadriyatlardagi o‘xshashliklarni semantik jihatdan isbotlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abjalova M. O‘zbek tili ontologiyasini yaratish tamoyillari. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferat. Toshkent, 2022.
2. Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. Toshkent, 2019

3. Jumayeva K. Kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatda konsept tushunchasi. Yangi O'zbekiston pedagoglari, 2025.
4. Qo'ziyev U., Qurbonova K. Tilshunoslikda "Konsept" tushunchasi ko'lami haqida.
5. Ravshanov Sh. WordNet – online ma'lumotlar bazasi. Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollari, 2021.

